# O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019-yil yanvar-oktabr*)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o`sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo`yicha qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko`proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo`ladilar.

Ushbu yo`nalishda amalga oshirilgan islohotlar natijasida 2019 yilning yanvar-oktabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi hajmi 34 737,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 8 893,8 mln. AQSh dollariga yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 34,4 % ga oshgan. Ushbu ko`rsatkichdan eksport hajmi 14 812,9 mln. AQSh dollariga (o`sish sur`ati – 43,3 %) va import hajmi esa 19 924,8 mln. AQSh dollariga (o`sish sur`ati – 28,5 %) yetdi. Hisobot davrida 5 119,9 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo aylanmasi qayd etildi.




* dastlabki ma`lumot

O`zbekiston jahonning 189 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Respublika tashqi savdo aylanmasining dunyo davlatlari qatoriga nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (19,1 %), Rossiya Federatsiyasida (15,1 %), Qozog`istonda (8,4 %), Koreya Respublikasida (6,5 %), Turkiyada (5,9 %), Germaniyada (2,4 %) va Qirg`izistonda (2,0 %) qayd etilgan.

## O'zbekiston Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori bo'lgan davlatlar

(yanvar-oktabr 2019 y., mln AQSh dollari, ulushi %)

| Top-10 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % |
|---|---|---|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 6619,4 | 2486,5 | 4132,9 | 19,1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 5246,0 | 1989,7 | 3256,3 | 15,1 |
| Qozog`iston | 2904,6 | 1262,2 | 1642,4 | 8,4 |
| Koreya Respublikasi | 2251,5 | 88,3 | 2163,2 | 6,5 |
| Turkiya | 2047,0 | 973,9 | 1073,0 | 5,9 |
| Germaniya | 824,8 | 42,0 | 782,8 | 2,4 |
| AQSh | 552,7 | 23,5 | 529,2 | 1,6 |
| Turkmaniston | 428,9 | 76,3 | 352,7 | 1,2 |
| Tojikiston | 407,8 | 264,2 | 143,6 | 1,2 |
| Litva | 392,5 | 18,6 | 373,9 | 1,1 |

2019 yil yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko`ra MDH mamlakatlari bilan savdo hajmi 11 889,0 mln. AQSh dollarini tashkil qildi va O`zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 34,2 % ga yetdi.

Qo`shni davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi o`zaro savdo-sotiq aloqalariga ham ijobiy ta`sir ko`rsatmoqda. MDH mamlakatlari bilan tashqi savdoning qariyib 37,4 %, shundan eksportning 42,2% va importning 33,6% qo`shni mamlakatlar hissasiga to`g`ri keladi.

**O`zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlarlarning hajmlari dinamikasi**

(yanvar-oktabr, mln AQSh dollari, ulushi %)




Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 65,8 % ga yetib (22 848,7 mln. AQSh dollari) o`tgan yilning mos davridagi tashqi savdo aylanmasiga nisbatan 152,0 % ga oshgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ikki davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Tojikiston (120,6 mln. AQSh dollari) va Eron (5,7 mln. AQSh dollari). Qolgan 18 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

## O`zbekiston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

(yanvar-oktabr, mln AQSh dollari)

| Davlat nomi | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil |
|---|---|---|---|
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **3 904,1** | **5 049,8** | **6 619,4** |
| eksport | 1 639,7 | 2 223,3 | 2 486,5 |
| import | 2 264,4 | 2 826,5 | 4 132,9 |
| saldo | -624,8 | -603,2 | -1 646,4 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **3 922,5** | **4 622,6** | **5 246,0** |
| eksport | 1 710,6 | 1 695,2 | 1 989,7 |
| import | 2 211,9 | 2 927,3 | 3 256,3 |
| saldo | -501,3 | -1 232,1 | -1 266,5 |
| **Qozog`iston** | **1 675,7** | **2 367,8** | **2 904,6** |
| eksport | 863,5 | 1 146,3 | 1 262,2 |
| import | 812,2 | 1 221,5 | 1 642,4 |
| saldo | 51,3 | -75,2 | -380,2 |
| **Koreya Respublikasi** | **1 101,5** | **1 537,7** | **2 251,5** |
| eksport | 91,6 | 78,7 | 88,3 |
| import | 1 009,9 | 1 459,0 | 2 163,2 |
| saldo | -918,2 | -1 380,4 | -2 074,9 |
| **Turkiya** | **1 234,7** | **1 746,6** | **2 047,0** |
| eksport | 692,1 | 714,2 | 973,9 |
| import | 542,6 | 1 032,4 | 1 073,0 |
| saldo | 149,5 | -318,2 | -99,1 |
| **Germaniya** | **517,7** | **577,7** | **824,8** |
| eksport | 21,7 | 35,3 | 42,0 |
| import | 496,0 | 542,5 | 782,8 |
| saldo | -474,3 | -507,2 | -740,7 |
| **AQSh** | **181,5** | **345,7** | **552,7** |

| Davlat nomi | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil |
|---|---|---|---|
| eksport | 17,1 | 24,9 | 23,5 |
| import | 164,4 | 320,8 | 529,2 |
| saldo | -147,3 | -296,0 | -505,8 |
| **Turkmaniston** | **143,2** | **200,1** | **428,9** |
| eksport | 59,5 | 36,8 | 76,3 |
| import | 83,7 | 163,2 | 352,7 |
| saldo | -24,1 | -126,4 | -276,4 |
| **Tojikiston** | **197,6** | **315,9** | **407,8** |
| eksport | 150,2 | 183,5 | 264,2 |
| import | 47,4 | 132,4 | 143,6 |
| saldo | 102,8 | 51,1 | 120,6 |
| **Litva** | **206,9** | **228,9** | **392,5** |
| eksport | 5,0 | 8,4 | 18,6 |
| import | 201,9 | 220,5 | 373,9 |
| Saldo | -196,8 | -212,0 | -355,3 |
| **Yaponiya** | **138,5** | **425,8** | **356,6** |
| eksport | 10,8 | 11,7 | 25,0 |
| import | 127,6 | 414,1 | 331,6 |
| saldo | -116,8 | -402,5 | -306,6 |
| **Italiya** | **141,7** | **234,4** | **344,5** |
| eksport | 13,7 | 19,5 | 22,8 |
| import | 128,0 | 214,9 | 321,7 |
| saldo | -114,2 | -195,4 | -299,0 |
| **Eron** | **239,8** | **254,3** | **338,0** |
| eksport | 193,8 | 146,5 | 171,8 |
| import | 46,0 | 107,7 | 166,2 |
| saldo | 147,9 | 38,8 | 5,7 |
| **Latviya** | **234,9** | **368,4** | **316,4** |

| Davlat nomi | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil |
|---|---|---|---|
| eksport | 64,4 | 33,4 | 40,6 |
| import | 170,5 | 335,0 | 275,8 |
| saldo | -106,1 | -301,5 | -235,3 |
| **Ukraina** | **219,5** | **363,5** | **314,9** |
| eksport | 80,0 | 83,5 | 103,6 |
| import | 139,5 | 280,1 | 211,3 |
| saldo | -59,5 | -196,6 | -107,7 |
| **Hindiston** | **288,5** | **229,8** | **303,9** |
| eksport | 28,4 | 19,3 | 19,2 |
| import | 260,1 | 210,5 | 284,7 |
| saldo | -231,7 | -191,2 | -265,5 |
| **Belarus** | **134,7** | **330,2** | **283,0** |
| eksport | 21,0 | 31,7 | 38,4 |
| import | 113,7 | 298,6 | 244,7 |
| saldo | -92,7 | -266,9 | -206,3 |
| **Singapur** | **47,8** | **65,9** | **162,3** |
| eksport | 40,1 | 48,6 | 25,7 |
| import | 7,7 | 17,4 | 136,6 |
| saldo | 32,5 | 31,2 | -111,0 |
| **Shvetsariya** | **133,7** | **152,0** | **156,5** |
| eksport | 6,1 | 9,8 | 28,3 |
| import | 127,6 | 142,3 | 128,2 |
| saldo | -121,5 | -132,5 | -100,0 |
| **Chexiya Respublikasi** | **75,1** | **57,1** | **132,1** |
| eksport | 5,4 | 4,2 | 9,1 |
| import | 69,7 | 53,0 | 123,0 |
| saldo | -64,4 | -48,8 | -113,9 |

# EKSPORT

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o`sishiga ko`maklashadi va bu o`z navbatida ma`lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan korxonalar soni o`tgan yilning shu davriga nisbatan 1 172 taga ko`payib, ularning umumiy soni 5 438 tani tashkil etdi.



Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug`ullanuvchi xo`jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi 14 812,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi (o`tgan yilning shu davriga nisbatan o`sish sur`ati 43,3 % ga teng). Eksport tarkibida tovarlar 80,8 % ulushga ega bo`lib, bular asosan energiya manbalari va neft mahsulotlari (16,6 %), to`qimachilik va to`qimachilik buyumlari (8,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari (8,7 %), rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar (5,3 %) hamda kimyo mahsulotlari va buyumlari (5,0 %) hissasiga tog`ri kelmoqda.

## MDH va boshqa xorijiy davlatlar bo`yicha eksport tarkibi

(2019-yil yanvar-oktabr)

| Tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln. AQSh dollari | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh dollari | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh dollari | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| **Jami eksport** | **14812,9** | **143,3** | **100,0** | **5178,3** | **126,2** | **100,0** | **9634,6** | **154,6** | **100,0** |
| Paxta tolasi | 247,8 | 127,6 | 1,7 | 1,1 | 36,5 | 0,0 | 246,6 | 129,1 | 2,6 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 1286,9 | 139,7 | 8,7 | 848,2 | 136,5 | 16,4 | 438,7 | 146,4 | 4,6 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 736,9 | 98,8 | 5,0 | 340,9 | 111,4 | 6,6 | 396,0 | 90,1 | 4,1 |
| Energiya manbalari va neft mahsulotlari | 2453,5 | 115,6 | 16,6 | 1161,0 | 119,5 | 22,4 | 1292,5 | 112,3 | 13,4 |
| Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar | 248,8 | 146,1 | 1,7 | 79,7 | 2,2 p. | 1,5 | 169,0 | 125,5 | 1,8 |
| Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar | 783,7 | 127,8 | 5,3 | 134,6 | 165,2 | 2,6 | 649,1 | 122,1 | 6,7 |
| Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari | 354,0 | 2,2 p. | 2,4 | 248,6 | 2,1 p. | 4,8 | 105,5 | 2,5 p. | 1,1 |
| To`qimachilik mahsulotlari | 1315,5 | 123,2 | 8,9 | 672,0 | 114,5 | 13,0 | 643,5 | 133,8 | 6,7 |
| Oltin | 4043,5 | 2,6 p. | 27,3 | - | - | - | 4043,5 | 2,6 p. | 42,0 |
| Xizmatlar | 2847,5 | 112,9 | 19,2 | 1444,4 | 114,4 | 27,9 | 1403,1 | 111,3 | 14,6 |
| Boshqalar | 454,1 | 197,0 | 3,4 | 217,8 | 2,2 b. | 4,6 | 236,3 | 177,5 | 2,7 |

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o`tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, o`tgan yilning mos davriga nisbatan, kimyo mahsulotlari va buyumlaridan tashqari tovar va xizmatlar tarkibi turlarini eksport qilish hajmlarining o`sishi kuzatildi.

## Eksport tarkibi dinamikasi

(yanvar-oktabr, %)

| Tarkibi | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| Paxta tolasi | 3,3 | 1,9 | 1,7 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 6,4 | 8,9 | 8,7 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 6,7 | 7,2 | 5,0 |
| Energiya manbalari va neft mahsulotlari | 12,6 | 20,5 | 16,6 |
| Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar | 1,1 | 1,6 | 1,7 |
| Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar | 5,6 | 5,9 | 5,3 |
| Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari | 2,6 | 1,6 | 2,4 |
| To`qimachilik mahsulotlari | 8,7 | 10,3 | 8,9 |
| Oltin | 30,5 | 15,1 | 27,3 |
| Xizmatlar | 18,8 | 24,4 | 19,2 |
| Boshqalar | 3,7 | 2,5 | 3,3 |

So`nggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida diversifikatsiya kuzatildi. Jumladan, energiya manbalari va neft mahsulotlari ulushi 4,0 foiz punktga oshib, 16,6 % ni, oziq-ovqat mahsulotlari – 2,3 %, qora metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar - 0,3 %, to'qimachilik mahsulotlari – 0,2% va xizmatlar 0,4% punktga oshdi. Eksport tarkibi boshqa turlari ulushining pasayishi eksport tarkibida oltinning ulushi yuqoriligi hamda energiya manbalari va neft mahsulotlari ulushining sezilarli darajada o`sishi bilan izohlanadi.

# Eksport qilingan ayrim turdagi mahsulotlar tarkibi

(2019 y. yanvar-oktabr)

| Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | O`tgan yilga nisbatan, % | Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | O`tgan yilga nisbatan, % |
|---|---|---|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | | | | | |
| meva va rezavorlar | 575,7 | 119,8 | alkogolli va alkogolsiz ichimliklar | 9,7 | 99,0 |
| sabzavotlar | 476,2 | 183,6 | qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari | 40,4 | 167,6 |
| bug`doy | 17,3 | 84,4 | | | |
| **Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar** | | | | | |
| plastmassalar va ulardan tayyorlangan buyumlar | 334,7 | 87,8 | korbonat | 12,0 | 102,6 |
| o`g`itlar | 118,5 | 105,3 | kimyoviy shtapelli tola | 15,9 | 2,5 b. |
| farmatsevtika mahsuloti | 7,7 | 77,0 | ammiak | 1,6 | 114,3 |
| **Energiya manbalari va neft mahsulotlari** | | | | | |
| tabiiy gaz | 2242,4 | 116,6 | motor moylari | 4,7 | 42,3 |
| elektroenergiya | 72,4 | 52,4 | tarkibida oltingugurt bo`lgan yoqilg`ilar | 3,8 | 60,3 |
| qayta ishlangan boshqa neft mahsulotlari | 39,5 | 126,2 | | | |
| **Qora va rangli metallar** | | | | | |
| mis va mis buyumlari | 576,2 | 134,8 | rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar (misdan tashqari) | 207,5 | 111,8 |
| temir burchaklar, prutkalar va maxsus profillar | 214,2 | 135,9 | qora metallardan tayyorlangan bosma va dag`al buyumlar | 0,8 | 61,5 |
| **Mashina va asbob-uskunalar** | | | | | |
| simlar va kabellar | 36,4 | 2,2 b. | yengil avtomobil | 93,1 | 3,3 b. |
| transformatorlar va akkumlyatorlar | 29,4 | 2,7 b. | avtobuslar va mikroavtobuslar | 9,0 | 173,1 |
| elektr zanjirlarni almashtirish yoki himoya qilish jihozlari | 17,4 | 2,0 b. | yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar | 9,9 | 167,8 |
| avtomobillar uchun ehtiyot qismlar va jihozlar | 4,4 | 141,9 | tirkama va yarim tirkamalar | 5,5 | 4,6 b. |
| monitorlar va proyektorlar | 10,9 | 128,2 | | | |
| **Boshqalar** | | | | | |
| to`qimachilik mahsulotlari | 1315,5 | 123,2 | oyoq kiyim, getra va ularning qismlari | 24,1 | 2,3 b. |
| charm xom-ashyosi, charm va jun, ulardan tayyorlangan buyumlar | 44,7 | 66,8 | shisha va shisha buyumlar | 7,2 | 85,7 |
| qog`oz, karton va matbaa buyumlari | 13,5 | 90,6 | sopol buyumlar | 13,7 | 117,1 |

Eksportning eng katta ulushi tabiiy gaz (umumiy tovarlar eksporti hajmidagi ulushi 18,7 %), to`qimachilik mahsulotlari (11,0 %), mis va mis buyumlari (4,8 %), meva va rezavorlar (3,9 %) hissasiga to`g`ri keladi.

So`nggi uch yil ichida MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi, ularning umumiy eksport hajmidagi ulushi 2017 yildagi 31,7 % dan 2019 yilda 35,0 % gacha ortdi. Mos ravishda, boshqa xorijiy mamlakatlarning umumiy eksportdagi ulushi 65,0 % tashkil etdi.

**MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar eksporti hajmlari dinamikasi**

(yanvar-oktabr, mln AQSh dollari, ulushi %)




O`tgan yil bilan taqqoslaganda, tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 16,8 %), Rossiya Federatsiyasi (13,4 %), Qozog`iston (8,5 %), Turkiya (6,6 %), Qirg`iziston (3,9 %), Afg`oniston (3,3 %) va Tojikiston (1,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda. Hamda ularning jami eksportdagi ulushi 50 foizdan yuqorini tashkil etmoqda.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan biri bo`lgan Tojikiston eksport ulushi bo`yicha Eronni o`rniga qayta tiklandi. Shu bilan birga, Qirg`iziston yildan yilga Afg`oniston va Eronni ortda qoldirib o`z mavqeini mustahkamlamoqda.

### Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(yanvar-oktabr)

| | 2017 y. | 2018 y. | 2019 y. |
|---|---|---|---|
| 1 | Rossiya Federatsiyasi 16,0 % | XXR 21,5 % | XXR 16,8 % |
| 2 | XXR 15,3 % | Rossiya Federatsiyasi 16,4 % | Rossiya Federatsiyasi 13,4 % |
| 3 | Qozog`iston 8,1 % | Qozog`iston 11,1 % | Qozog`iston 8,5 % |
| 4 | Turkiya 6,5 % | Turkiya 6,9 % | Turkiya 6,6 % |
| 5 | Afg`oniston 4,4 % | Afg`oniston 5,0 % | Qirg`iziston 3,9 % |
| 6 | Eron 1,8 % | Qirg`iziston 2,1 % | Afg`oniston 3,3 % |
| 7 | Tojikiston 1,4 % | Tojikiston 1,8 % | Tojikiston 1,8 % |

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha jug`rofiyasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan 148 davlatdan 174 davlatgacha o`sdi.

# O`zbekiston Respublikasining asosiy hamkor davlatlariga amalga oshirilgan eksport hajmi va o'sish sur'atlari

(yanvar-oktabr)

| Davlat nomi | Mln. AQSh dollari | | O`sish sur`ati, % | | O`rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 2223,3 | 2486,5 | 135,6 | 111,8 | 1 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 1695,2 | 1989,7 | 99,1 | 117,4 | 2 | 2 |
| Qozog`iston | 1146,3 | 1262,2 | 132,7 | 110,1 | 3 | 3 |
| Turkiya | 714,2 | 973,9 | 103,2 | 136,4 | 4 | 4 |
| Qirg`iziston | 215,0 | 584,2 | 143,3 | 2,7 b. | 6 | 5 |
| Afg`oniston | 512,7 | 491,6 | 108,0 | 95,9 | 5 | 6 |
| Tojikiston | 183,5 | 264,2 | 122,2 | 144,0 | 7 | 7 |
| Eron | 146,5 | 171,8 | 75,6 | 117,3 | 9 | 8 |
| Fransiya | 151,1 | 168,2 | 131,5 | 111,3 | 8 | 9 |
| Birlashgan Arab Amirliklari | 43,0 | 112,5 | 127,1 | 2,6 b. | 13 | 10 |
| Ukraina | 83,5 | 103,6 | 104,4 | 124,1 | 10 | 11 |
| Koreya Respublikasi | 78,7 | 88,3 | 85,9 | 112,2 | 11 | 12 |
| Turkmaniston | 36,8 | 76,3 | 61,9 | 2,1 b. | 15 | 13 |
| Pokiston | 25,6 | 73,0 | 4,6 b. | 2,9 b. | 23 | 14 |
| Buyuk Britaniya | 37,8 | 59,4 | 112,8 | 157,3 | 14 | 15 |
| Ozarbayjon | 25,5 | 43,3 | 129,1 | 169,5 | 24 | 16 |
| Germaniya | 35,3 | 42,0 | 162,5 | 119,2 | 17 | 17 |
| Latviya | 33,4 | 40,6 | 51,9 | 121,3 | 19 | 18 |
| Belarus | 31,7 | 38,4 | 150,9 | 121,2 | 21 | 19 |
| Polsha | 32,3 | 34,3 | 113,0 | 106,2 | 20 | 20 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan energiya manbalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.

## Respublikaning ayrim davlatlar bilan eksport tarkibi

(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)

| | Xitoy | | Rossiya | | Qozog`iston | | Turkiya | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| **Jami eksport** | 2223,3 | 2486,5 | 1695,2 | 1989,7 | 1146,3 | 1262,2 | 714,2 | 973,9 |
| paxta tolasi | 55,6 | 141,4 | 2,7 | 0,6 | - | - | 8,1 | 9,1 |
| oziq-ovqat mahsulotlari | 48,7 | 55,6 | 155,6 | 168,7 | 361,0 | 263,6 | 20,4 | 94,7 |
| kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar | 123,9 | 116,7 | 137,6 | 146,5 | 82,7 | 98,9 | 88,9 | 48,0 |
| energiya manbalari va neft mahsulotlari | 988,0 | 1133,0 | 454,4 | 668,8 | 469,6 | 446,8 | 2,0 | 12,7 |
| qora metallar | 3,2 | 0,3 | 2,8 | 2,5 | 20,1 | 56,1 | 4,9 | 4,3 |
| rangli metallar | 90,2 | 67,0 | 36,7 | 57,3 | 14,3 | 38,8 | 411,5 | 546,4 |
| mashina va asbob-uskunalar | 4,0 | 3,9 | 48,2 | 59,2 | 36,3 | 120,7 | 22,5 | 55,6 |
| to`qimachilik mahsulotlari | 263,5 | 352,6 | 453,1 | 489,2 | 34,0 | 33,6 | 102,0 | 153,1 |
| xizmatlar | 584,9 | 576,9 | 372,9 | 364,3 | 84,9 | 109,7 | 49,6 | 46,6 |
| boshqalar | 61,4 | 39,0 | 31,1 | 32,6 | 43,4 | 94,0 | 4,5 | 3,4 |

Xizmatlar eksporti hajmi 2 847,5 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 19,2 % ini tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 12,9 % ga o`sganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport va turizm xizmatlari hissasiga to`g`ri keladi.




## Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida jami 1 159,7 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 1051,9 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o`sish sur`ati mos ravishda - 113,4 % va 142,2 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 476,2 mln. AQSh dollariga teng 667,2 ming tonnadan ortiq sabzavot, shuningdek 575,7 mln. AQSh dollari qiymatidagi 492,5 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymat ko`rinishidagi o`sish sur`ati o`tgan yilning shu davriga nisbatan mos ravishda 183,6 % va 119,8 % ni tashkil etdi).

## Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

(yanvar-oktabr, 2019 y.)




Hukumatimiz tomonidan qishloq xo`jaligi va bog`dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-oktabr oylarida umumiy eksportdagi meva va sabzavotlarning ulushi 7,1% ni tashkil etdi.

## Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

(yanvar-oktabr)

| Davlat nomi | 2018-yil | | | 2019-yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % |
| Qirg`iziston | 78,7 | 69,2 | 6,6 | 109,4 | 303,3 | 28,8 |
| Qozog`iston | 512,4 | 346,2 | 32,9 | 473,1 | 249,2 | 23,7 |
| Rossiya Federatsiyasi | 201,1 | 140,4 | 13,3 | 214,9 | 136,8 | 13,0 |
| Turkiya | 17,9 | 19,1 | 1,8 | 58,5 | 93,0 | 8,8 |
| Pokiston | 21,6 | 16,7 | 1,6 | 34,2 | 60,3 | 5,7 |
| Afg`oniston | 58,7 | 43,3 | 4,1 | 32,8 | 49,2 | 4,7 |
| Ukraina | 9,4 | 6,4 | 0,6 | 52,7 | 34,6 | 3,3 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 42,0 | 30,0 | 2,8 | 36,4 | 33,4 | 3,2 |
| Tojikiston | 4,1 | 2,3 | 0,2 | 17,9 | 10,9 | 1,0 |

| Davlat nomi | 2018-yil | | | 2019-yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % |
| Eron | 10,0 | 7,9 | 0,8 | 14,2 | 10,9 | 1,0 |
| Iroq | 4,2 | 4,5 | 0,4 | 16,0 | 9,8 | 0,9 |
| Belarus | 5,8 | 5,7 | 0,5 | 12,1 | 8,0 | 0,8 |
| BAA | 6,1 | 4,9 | 0,5 | 4,8 | 5,6 | 0,5 |
| Turkmaniston | 4,8 | 2,9 | 0,3 | 18,0 | 5,5 | 0,5 |
| Ozarbayjon | 2,9 | 3,1 | 0,3 | 4,8 | 5,3 | 0,5 |
| Germaniya | 2,0 | 3,9 | 0,4 | 2,5 | 5,1 | 0,5 |
| Boshqa mamlakatlar | 41,0 | 33,2 | 4,5 | 57,4 | 30,7 | 2,9 |

**- qiymat ifodasidan*

## To`qimachilik mahsulotlari eksporti

2019-yilning o`tgan davri mobaynida 1 315,5 mln. AQSh dollari miqdorida to`qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirildi. Bu ko`rsatkich 2018-yilning mos davriga nisbatan 23,2 % ga o`sib, umumiy eksport hajmining 8,9 % ini tashkil qildi. Eksport qilingan to`qimachilik mahsulotlari tarkibidan paxtadan yigirilgan ip (56,7 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (22,4 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 384 turdan ortiq to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 56 та davlatiga eksport qilindi.

## To`qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi

(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)

| | 2017 y. | 2018 y. | 2019 y. |
|---|---|---|---|
| Paxtadan yigirilgan ip | 509,5 | 606,0 | 746,1 |
| Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari | 230,4 | 241,0 | 295,2 |
| Naqshli mato | 42,4 | 54,9 | 71,8 |
| Paxtadan gazlamalar | 45,3 | 52,2 | 56,8 |
| Boshqa to`qimachilik mahsulotlari | 26,0 | 29,1 | 41,7 |
| Ipak va ipak mahsulotlari | 20,0 | 30,7 | 48,3 |
| Gilamlar | 26,4 | 25,2 | 25,5 |
| Paxta mahsulotlari | 21,2 | 21,7 | 22,8 |

Respublikaning to`qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag`batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To`qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (489,2 mln. AQSh dollari – 37,2 %), Xitoy (352,6 mln. AQSh dollari – 26,8 %) va Turkiya (153,1 mln. AQSh dollari – 11,6 %) davlatlariga tegishli.

## Davlatlar kesimida to`qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi

(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)

| Davlatlar | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil |
|---|---|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 431,0 | 453,1 | 489,2 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 168,9 | 263,5 | 352,6 |
| Turkiya | 88,8 | 102,0 | 153,1 |
| Qirg`iziston | 44,9 | 54,9 | 80,0 |
| Eron | 19,5 | 18,1 | 40,0 |
| Qozog`iston | 39,3 | 34,0 | 33,6 |
| Ukraina | 10,4 | 15,6 | 23,9 |
| Polsha | 17,3 | 19,0 | 20,7 |
| Belarus | 14,1 | 18,5 | 20,1 |
| Misr | 0,8 | 2,5 | 10,2 |
| Bangladesh | 16,4 | 16,3 | 9,8 |
| Tojikiston | 4,4 | 2,2 | 9,7 |
| Italiya | 3,0 | 6,1 | 9,5 |
| Ozarbayjon | 2,9 | 4,5 | 8,8 |
| Pokiston | 0,6 | 4,8 | 6,7 |
| Germaniya | 2,3 | 3,3 | 6,6 |
| Koreya Respublikasi | 23,0 | 7,1 | 6,2 |
| Moldova | 2,5 | 2,4 | 5,1 |
| Vyetnam | 6,4 | 4,3 | 4,0 |
| Afg`oniston | 5,3 | 5,4 | 3,9 |

# IMPORT

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi 19 924,7 mln. AQSh dollariga (o`sish sur`ati 28,5 %) teng bo`ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar hamda ularning qismlari (44,3 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (12,9 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (7,5 %) hisobiga to`g`ri keldi.

## Tovar va xizmatlar importi tarkibi

(yanvar-oktabr, mln.AQSh dollari)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2019-yilning yanvar-oktabr oylari mobaynida import qilingan tovarlar hajmi, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 4 276,8 mln. AQSh dollariga ko`p import qilindi va 17 929,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1 995,8 mln. AQSh dollarga yetgan.

## MDH va boshqa xorijiy davlatlardan import tarkibi

(2019 yil yanvar-oktabr)

| Tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln. AQSh dollari | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh dollari | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh dollari | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| **Jami import** | **19924,8** | **128,5** | **100,0** | **6710,7** | **115,5** | **100,0** | **13214,1** | **136,3** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 1488,1 | 114,5 | 7,5 | 979,2 | 102,9 | 14,6 | 509,0 | 146,4 | 3,9 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 2573,0 | 125,9 | 12,9 | 541,4 | 140,6 | 8,1 | 2031,6 | 122,4 | 15,4 |
| Energiya manbalari va neft mahsulotlari | 710,4 | 100,2 | 3,6 | 671,9 | 99,0 | 10,0 | 38,4 | 126,1 | 0,3 |
| Qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar | 1515,5 | 114,2 | 7,6 | 980,1 | 109,0 | 14,6 | 535,4 | 124,9 | 4,1 |
| Rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar | 228,3 | 138,5 | 1,1 | 137,2 | 111,5 | 2,0 | 91,2 | 218,0 | 0,7 |
| Mashina va asbob-uskunalar | 8819,5 | 137,6 | 44,3 | 1044,4 | 116,4 | 15,6 | 7775,1 | 141,0 | 58,8 |
| Xizmatlar | 1995,8 | 107,5 | 10,0 | 883,6 | 108,0 | 13,2 | 1112,2 | 107,2 | 8,4 |
| Boshqalar | 2594,1 | 152,9 | 13,0 | 1473,0 | 139,1 | 22,0 | 1121,1 | 175,8 | 8,5 |

Importning eng katta ulushi, jumladan, energiya manbalari va neft mahsulotlari (94,6 %), rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar (60,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari (65,8 %) shuningdek qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar (64,7 %) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (88,2 %), kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar (78,9 %) hissasiga to`g`ri keladi.

## Import tarkibi dinamikasi

(yanvar-oktabr, %)

| Tarkibi | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil |
|---|---|---|---|
| **Jami import** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 9,4 | 8,4 | 7,5 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 15,9 | 13,2 | 12,9 |
| Energiya manbalari va nef mahsulotlari | 5,0 | 4,6 | 3,6 |
| Qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar | 8,4 | 8,6 | 7,6 |
| Rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar | 1,0 | 1,1 | 1,1 |
| Mashina va asbob-uskunalar | 35,8 | 41,3 | 44,3 |
| Xizmatlar | 13,5 | 12,0 | 10,0 |
| Boshqalar | 10,9 | 10,9 | 13,0 |

2019 yil yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, o`tgan yilning mos davriga nisbatan mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari importining ulushi 41,3 % dan 44,3 % gacha o`sdi, oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi esa 8,4 % dan 7,5 % ga kamaydi.

# Import qilingan ayrim turdagi mahsulotlar tarkibi

(2019 yil yanvar-oktabr)

| Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | O`tgan yilga nisbatan, % | Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | O`tgan yilga nisbatan, % |
|---|---|---|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | | | | | |
| shakar xomashyosi | 158,6 | 15,9 b. | kakao va undan tayyorlangan mahsulotlar | 43,8 | 159,9 |
| bug`doy | 293,7 | 137,1 | qandolat mahsulotlari | 59,1 | 158,9 |
| un | 65,6 | 70,8 | pista moyi | 140,7 | 144,8 |
| tayyor hayvon yemi | 113,5 | 110,5 | margarin | 28,2 | 122,6 |
| choy | 37,9 | 87,9 | sitrus mevalar | 32,0 | 179,8 |
| kartoshka | 20,3 | 53,6 | go`sht va yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari | 29,1 | 2,1 b. |
| **Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar** | | | | | |
| farmatsevtika mahsulotlari | 768,5 | 109,1 | o`simliklarni o`stirish regulyatorlari | 66,3 | 150,7 |
| plastmassa va plastmassa buyumlar | 653,7 | 142,1 | kimyoviy iplar | 54,9 | 108,1 |
| kauchuk va rezina mahsulotlari | 193,0 | 121,6 | kimyoviy shtapelli tola | 48,3 | 100,0 |
| organik kimyo birikmalari mahsuloti | 130,0 | 118,6 | aralashmalar va erituvchilar | 64,6 | 152,7 |
| parfyumeriya-kosmetika va yuvish vositalari | 176,3 | 147,7 | kaustik soda | 25,5 | 88,9 |
| bo`yoq ekstraktlari | 122,5 | 118,6 | kimyoviy va mineral o`g`itlar | 56,4 | 4,4 b. |
| **Energiya manbalari va neft mahsulotlari** | | | | | |
| neftni qayta ishlash mahsulotlari | 469,5 | 115,1 | aglomerlanmagan lignit yoki jigarrang ko`mir | 15,5 | 85,2 |
| neft xom-ashyosi | 83,4 | 40,8 | elektroenergiya | 55,2 | 120,5 |
| **Qora va rangli metallar** | | | | | |
| qora metall va undan tayyorlangan buyumlar | 1515,5 | 114,2 | rangli metall va undan tayyorlangan buyumlar | 228,3 | 138,5 |
| **Mashina va asbob-uskunalar** | | | | | |
| avtomobil uchun ehtiyot qismlar va buyumlar | 671,9 | 96,6 | ekskavatorlar va buldozerlar | 319,1 | 126,3 |

| Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | O`tgan yilga nisbatan, % | Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | O`tgan yilga nisbatan, % |
|---|---|---|---|---|---|
| to`qimachilik tolasini qayta ishlash mashinalari | 392,9 | 88,0 | kir yuvish va idish yuvish mashinalari, quritgichlar, sentrafugalar | 373,8 | 145,2 |
| yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar | 377,8 | 119,6 | yengil avtomobillar | 291,7 | 149,1 |
| konditsionerlar, sovutkichlar, muzlatkichlar va isitgichli uskunalar | 595,0 | 171,6 | shinalar va pokrishkalar | 161,8 | 99,3 |
| qishloq xo`jaligi mashinalari va boshqa uskunalari | 242,9 | 96,1 | tibbiy asbob-uskunalar | 231,6 | 160,5 |
| tuproqni maydalovchi uskunalar | 426,4 | 167,5 | elektron dvigatellar, generatorlar va transformatorlar | 292,2 | 80,8 |
| vakum va suyuqlik nasoslari | 468,2 | 2,0 b. | neft-gaz quvurlari uchun truba va trubkalar | 169,7 | 94,6 |
| uchuvchi apparatlar | 398,3 | 3,0 b. | oziq ovqatsanoati uchun uskunalar | 53,0 | 49,7 |
| **Boshqalar** | | | | | |
| yog`och va yog`och buyumlar | 510,0 | 98,8 | boshqa tirik o`simliklar | 23,5 | 68,3 |
| qog`oz, karton va chop etilgan buyumlar | 218,2 | 121,9 | asbest | 28,1 | 74,9 |
| sement | 138,8 | 96,5 | qimmatbaho bo`lmagan metalldan ishlangan oshxona asbob-anjomlari | 36,0 | 130,4 |
| rangli metall konsentartlari va rudalari | 343,7 | 3,9 b. | o`rindiq mebellar | 37,5 | 161,6 |
| tosh, gips va keramik buyumlar | 147,8 | 2,0 b. | o`yinchoqlar, o`yinlar va sport anjomlari | 27,7 | 137,1 |
| qurilish majmualari konstruksiyasi | 353,1 | 2,8 b. | yirik shoxli mollar | 104,3 | 2,8 b. |
| shisha va shishadan tayyorlangan buyumlar | 67,4 | 118,0 | tirik uy parrandalari | 7,6 | 100,0 |

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi barqaror nisbati saqlanib qolmoqda va joriy davrda ushbu ko`rsatkich 33,7:66,3 ni tashkil etdi

## MDH va boshqa xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi hajmlari dinamikasi

(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi %)




Hisobot davri natijalariga ko`ra, import bo`yicha hamkor-davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasini 16,3 % ulushi bilan ortda qoldirgan holda Xitoy umumiy import hajmida 20,7 % ulushi bilan birinchi o`rinni egalladi.

O`zbekiston Respublikasi tomonidan importning jadal o`sishi tufayli Singapur (o`sish sur`ati o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,9 b.) va Chexiya Respublikasi (2,3 b.) yirik import hamkor-davlatlar yigirmataligiga kirdi.

# Tovarlar va xizmatlar importidagi yigirmata yirik hamkor-davlatlar

(yanvar-oktabr)

| Davlat nomi | mln. AQSH dollari | | o`sish sur`ati, % | | o`rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 2 826,5 | 4 132,9 | 124,8 | 146,2 | 2 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 2 927,3 | 3 256,3 | 132,3 | 111,2 | 1 | 2 |
| Koreya Respublikasi | 1 459,0 | 2 163,2 | 144,5 | 148,3 | 3 | 3 |
| Qozog`iston | 1 221,5 | 1 642,4 | 150,4 | 134,5 | 4 | 4 |
| Turkiya | 1 032,4 | 1 073,0 | 190,3 | 103,9 | 5 | 5 |
| Germaniya | 542,5 | 782,8 | 109,4 | 144,3 | 6 | 6 |
| AQSh | 320,8 | 529,2 | 195,2 | 164,9 | 9 | 7 |
| Litva | 220,5 | 373,9 | 109,2 | 169,6 | 12 | 8 |
| Turkmaniston | 163,2 | 352,7 | 195,1 | 2,2 b. | 15 | 9 |
| Yaponiya | 414,1 | 331,6 | 324,4 | 80,1 | 7 | 10 |
| Italiya | 214,9 | 321,7 | 167,9 | 149,7 | 13 | 11 |
| Hindiston | 210,5 | 284,7 | 80,9 | 135,2 | 14 | 12 |
| Latviya | 335,0 | 275,8 | 196,4 | 82,3 | 8 | 13 |
| Belarus | 298,6 | 244,7 | 262,6 | 81,9 | 10 | 14 |
| Ukraina | 280,1 | 211,3 | 200,8 | 75,5 | 11 | 15 |
| Eron | 107,7 | 166,2 | 234,4 | 154,2 | 19 | 16 |
| Tojikiston | 132,4 | 143,6 | 279,0 | 108,5 | 17 | 17 |
| Singapur | 17,4 | 136,6 | 226,9 | 7,9 b. | 41 | 18 |
| Shveytsariya | 142,3 | 128,2 | 111,5 | 90,1 | 16 | 19 |
| Chexiya Respublikasi | 53,0 | 123,0 | 75,9 | 2,3 b. | 28 | 20 |

2019-yilning yanvar-oktabr oyida respublikaga 154 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan.




Shulardan 7 ta eng yirik bo`lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog`iston, Turkiya, Germaniya va AQSh hamkor davlatlaridan jami import hajmi 13 579,8 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 68,2 % ini tashkil qiladi.




Xizmatlar importi hajmi 1 995,8 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 10,0 % ini tashkil etdi va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,5 % ga oshgan. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm xizmatlari), transport xizmatlaridan iborat bo`ldi.

## Qurilish materiallari importi

2019-yilning yanvar-oktabr oylari mobaynida 1 106,9 mln. AQSh dollari miqdorida qurilish materiallari importi amalga oshirildi. Bu ko`rsatkich 2018-yilning mos davriga nisbatan 12,1 % ga o`sib, umumiy import hajmining 5,6 % ini tashkil qildi.

Import qilingan qurilish materiallari tarkibida yog`och va yog`och mahsulotlari (48,5 %), sement (12,6 %), shisha va shisha buyumlar (5,0 %) hamda asbest (2,5 %) asosiy ulushni egallagan.

## Qurilish materiallari importi

(yanvar-oktabr 2019 y.)




Infografikadan ko`rinib turibdiki, 2019-yilning yanvar-oktabr oyida qurilish materiallari import hajmi 2018-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Qurilish materiallari importi hajmining o`sishiga yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, xususan, keng ko`lamdagi qurilish-rekonstruktsiya ishlarini amalga oshirilishi sabab bo`lmoqda.

## Qurilish materiallari importi dinamikasi

(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)

| | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil |
|---|---|---|---|
| Sement | 19,1 | 144,8 | 139,8 |
| Yog`och va og`och mahsulotlari | 402,2 | 538,7 | 537,2 |
| Asbest | 26,2 | 37,5 | 28,1 |
| Shisha va shisha buyumlar | 37,0 | 47,0 | 55,4 |

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta`minlash bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganligi quyidagi jadvallardan ko`rish mumkin.

## Mashina va asbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

(yanvar-oktabr 2019 y.)



## Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

(yanvar-oktabr 2019 y.)



**XXR**
617,0 mln. AQSh dollari
o`sish sur`ati - 120,8
ulushi - 24,0 %

**Rossiya Federatsiyasi**
356,9 mln. AQSh dollari
o`sish sur`ati - 123,1
ulushi - 13,9 %

**Koreya Respublikasi**
212,6 mln. AQSh dollari
o`sish sur`ati - 142,0
ulushi - 8,3 %

**Turkiya**
205,3 mln. AQSh dollari
o`sish sur`at i- 123,9
ulushi - 8,0 %

**Hindiston**
150,7 mln. AQSh dollari
o`sish sur`ati - 127,0
ulushi - 5,9 %

Shu bilan, yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo`lmoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o`rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi**
**Tel.:71-230-80-42 (43)**